

8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

8.1. Xodim o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda korrupsiyaviy xatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan g'ayriqonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida:

- pora taklif qilmaslik;
- va'da bermaslik;
- pul to'lamaslik, tovlamachilik qilmaslik;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik;
- pora olmaslik;
- biron-bir shaxs foydasiga yoki biron-bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;
- mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik;
- o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik majburiyatini oladi.

8.2. Xodim atrofdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish sifatida baholanishi mumkin bo'lgan hulq-atvordan o'zini tiyishi shart.

8.3. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining ichki hujjatlariga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rishi va manfaatlar to'qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o'ziga ma'lum bo'lishi bilan darhol ish beruvchini yoki uning o'rmini bosadigan shaxslarni xabardor qilishi shart.

8.4. Xodimlar orasida shaxsiy yoki boshqa shaxslarnig manfaatlarini ko'zlab, xizmat majburiyatlaridan chetga chiqqan holda boshqa xodimlarnig professional ish faoliyatiga aralashish, ma'lumot so'rash hamda qaror qabul qilishiga ta'sir ko'rsatish holatlari yuzaga kelganda "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining ichki hujjatlariga muvofiq darhol quyidagi aloqa kanallari orqali:

“+998 71 244-28-89” ishonch telefoni;

Telegram kanali **@turonbankantikor_bot**;

Veb sayt **www.turonbank.uz**;

anticorrupt@turonbank.uz elektron pochta manziliga xabar qilishi lozim.

8.5. Agar xodim "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi faktlarni aniqlasa, u ushbu ma'lumotni aloqa kanallari orqali "Turonbank" aksiyadorlik tijorat banki tizimida Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish Siyosatida ko'rsatilgan shaxsiga taqdim etishi shart.

8.6. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan korrupsiyaga qarshi talablarni buzgan taqdirda, qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.